

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ODILJONOVA KAMOLA ABDUVOSIT QIZI

**O‘QUVCHILARNING LEKSIK KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISHDA VERBAL VOSITALARDAN FOYDALANISHNING
ILMIY-METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Odiljonova Kamola Abduvosit qizi

О‘quvchilarning leksik kompetensiyalarini rivojlantirishda verbal vositalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish..... 3

Odiljonova Kamola Abduvosit qizi

Совершенствование научно-методических основ использования вербальных средств в развитии лексических компетенций учащихся..... 25

Urmonova Dilfuza Mamasaliyevna

Improving the scientific and methodological foundations of using verbal means in developing students' lexical competence..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published word 53

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ODILJONOVA KAMOLA ABDUVOSIT QIZI

**O‘QUVCHILARNING LEKSIK KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISHDA VERBAL VOSITALARDAN FOYDALANISHNING
ILMIY-METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2023.4.PHD/Ped.6497 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasiga (www.adpi.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusupova Shohidaxon Jaloliddinovna
Pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar

Axmedova Malohat Ergashevna
Pedagogika fanlari doktori, professor

Xasanov Sharobidin Azamovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Yetakchi tashkilot :

Namangan davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Taxtako‘prik MFY, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (374) 224-01-70, e-mail: adpi@edu.uz, p-institut@exat.uz. Andijon davlat pedagogika instituti, ma‘muriyat binosi, 2-qavat, 208-kengashlar xonasi)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat pedagogika institutining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin ((_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 170100, Andijon shahri, Taxtako‘prik MFY, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy.) Tel.: (374) 224-01-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “_____” _____da tarqatildi.

(2025 yil “_____” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

B.M.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

D.T.Samatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.d., dotsent

B.A.Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv sharoitida soʻz semantikasi va uni oʻrganishga doir lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga doir oʻqitish tizimini joriy etish til taʼlimining ustuvor vazifasiga aylandi. Taʼkidlash joizki, ona tili taʼlimida oʻquvchilarni tilning asosiy fonetik, leksik-semantik, grammatik sathi va birliklariga doir lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishga jiddiy eʼtibor qaratilmoqda. Shu oʻrinda, globallashuv davrida ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirishda zamonaviy taʼlim metodlari va texnologiyalari vositasida leksik kompetentlikni shakllantirish, interfaol taʼlim muhitini yaratishning metodik tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo til taʼlimida umumiy oʻrta taʼlim maktablarida ona tili fanini oʻqitish orqali lingvistik kompetensiyalar sirasida soʻz turkumlari tasnifi, soʻzning leksik va grammatik maʼnolari, morfologik shakllari, kategoriyalariga doir yuksak bilim, malaka va koʻnikmalar majmui boʻlgan leksik kompetensiyaning muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga egaligi eʼtirof etilgan. Leksik kompetensiya oʻquvchilarning nafaqat leksikologiyaga oid, balki fonetik, morfologik, morfemik, sintaktik, uslubiy kompetensiyalarini aloqadorlik, bogʻliqlik, uzviylik va uzluksizlik tamoyillari asosida mukammallashtiruvchi, takomillashtiruvchi va rivojlantiruvchi hamda ularda faol ijodiy, mustaqil, tanqidiy fikrlash, izlanuvchanlik sifatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning ilmiy-metodik tizimi va zamonaviy texnologiyalarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda taʼlimning barcha bosqichlarida ona tili taʼlimini takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Yangi Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasida oʻqituvchi hamda murabbiylar oldiga “jismonan sogʻlom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qatʼiy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu, albatta, ona tili fani oʻqituvchilariga tilning barcha birlik va sohalari boʻyicha yuksak bilim, malaka va koʻnikmalar, yaʼni lingvistik kompetentligi yetuk oʻquvchilarni tarbiyalashni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan ona tili taʼlimi jarayonida oʻquvchilarda leksik birlik va vositalarni tushunish, anglash, farqlash, qoʻllash, tahlil qilishga doir kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalari tadqiqi dolzarb hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-sentyabrdagi PQ-3931-son “Xalq

1 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi” PF-49-47-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral. <https://lex.uz/docs/-3107036>

ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-iyuldagi "Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti to'g'risida"gi 419-son, 2020-yil 11-martdagi "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 139-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. . Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik va metodik jihatlari, dars jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirish masalalari respublikamizning pedagog olimlaridan² U.Sh.Begimqulov, O'.K. Tolipov, U.I. Inoyatov, N.N.Azizxo'jayeva, N.A.Muslimov, Z.E.Azimova, U.I.Inoyatov, O.M.Musurmanovalarning ilmiy izlanishlarida o'quvchi va o'qituvchilar hamda talabalar kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari tadqiq etilgan bo'lsa, tilshunoslik bo'yicha professorlar: I.Qo'chqortoyev, A.Nurmonov, M.Saidxonov, N.Mahmudov, A.Sobirovlar so'z va uning nutqda qo'llanishi haqida, uning verballashuv jihatlari haqida salmoqli fikrlarni aytgan.

Ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha esa mustaqillikdan so'ng H.Ne'matov. A.G'ulomov, R.Safarova, H.Alavuddinova, D.Yo'ldoshevalar ona tili ta'limi maqsadi va mazmunini yangilashning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqdilar. Shuningdek, Sh.Yusupova, N.Yuldasheva, X.Muhiddinova, M.Ziyadova, A.Hamroyev, G'.Hamroyev, M.Sobirova, T. Kaziyeva, Y.Umarova kabilarning tadqiqotlarida ona tilini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish masalalari tadqiq qilingan. A.G'ulomov, M.Ahmedova, N.Alavuddinova va K.Mavlonovalar ona tili o'qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish matn yaratish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Uzluksiz ta'limda ona tilida matn bilan ishlash metodikasi bo'yicha T.Yusupova tomonidan ilmiy izlanish amalga oshirilgan. X.Muxitdinova o'zbek tili darslarida uzviylikni ta'minlashning lingvodidaktik asoslarini ishlab chiqishga oid tadqiqot olib borgan.

2 Mazkur ilmiy ishlarning to'liq nomi dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Ta'kidlash joizki, tilshunos olimlar A.Nurmonov, N.Mahmudov, B.Mengliyev, A.Sobirovlar o'quv topshiriqlarini darsliklarda milliy yondashuv asosida takomillashtirishga hissa qo'shdilar. B.Mengliyev matn bilan ishlash asosida o'quvchi kompetensiyasini rivojlantirish masalalarini yoritgan bo'lsa, M.Saidxonov "O'zbek tilida ishoralarning verballashuvi va matniy xususiyatlari"ning nazariy-amaliy masalalariga alohida e'tibor qaratganligini ta'kidlash mumkin. Tadqiqotchilar Sh.Yusupova, A.Bobomurodova, T.Ziyadova, A.Hamroyev, K.Mavlonovalar ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish imkoniyatlari, o'zining ona tili ta'limi jarayonida o'quvchi kompetensiyasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasiga doir masalalarni yoritishga e'tibor qaratganlar. Ular tomonidan ta'lim oluvchining o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, matn bilan ishlash orqali o'quvchi faolligini oshirish muammolari ham o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlaridagi O.A.Abdulina, L.V.Andropova, V.P.Bespalko, Y.M.Borisova, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, V.A.Kan-Kalik, M.I.Lukyanova, S.N.Mironenko, T.M.Sarokina, V.A.Slastenin va boshqalar tomonidan bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, kasbiy-pedagogik tayyorlash samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Xorij olimlaridan G.Spenser, B.Blum, Amiri F., Demetriadis S. kabilarining tadqiqotlarida ta'limda ijodkorlik, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, kasbiy-pedagogik yetuklik muammolariga, tilni o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan o'zbek, rus, xorij olimlari va metodistlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar biz o'rganishni maqsad qilgan muammoning ma'lum jihatlariga aloqador umumiy xulosalarni berganligi bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Andijon davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda verbal ta'sir vositalaridan foydalanishning zamonaviy texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ona tili o'qitishda verbal ta'sir vositalaridan foydalanishning bugungi ahvolini tahlil qilish hamda so'zning muloqot jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlarini, ya'ni lisoniy kompetensiya va uning nutqiy ifodasi munosabatini o'rganish;

so'zning bilish jarayonidagi, jumladan, nutqiy-tafakkur faoliyatidagi rolini, xotirada bilimning ifodalanish shakllarini hamda uning voqe bo'lish jarayonini o'rganish; nutqiy faoliyat jarayonida verbal vositalardan foydalanishning yo'l va usullarini tadqiq etish;

so'z nafaqat muloqot vositasi, balki olamni bilish, o'rganish, ko'rish, his qilish va anglash, xabarlarni beruvchi va qabul qiluvchi belgilar tizimi ekanligini o'rgatish;

so'zning nomlash (nominatsiya), axborot berish (informatsiya), ekspressiya (estetik ta'sir va baho) kabi vazifalarini tahlil etish, uni amaliyotga tatbiq etish asosida

o‘quvchilarda leksik kompetensiyalarni rivojlantirish modelini ishlab chiqish hamda joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o‘quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Andijon, Farg‘ona, Sirdaryo viloyatlaridan 558 nafar o‘quvchi jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini ona tili ta’limida o‘quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalari mazmuni, shakl, metod hamda vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, qiyosiy tahlil, diagnostik (anketa, suhbat, so‘rov), tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil, loyihalash, modellashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘quvchilar leksik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mohiyati va mazmuni so‘zning lug‘aviy, grammatik xususiyatlarini farqlash, o‘zaro qiyoslash, nutq vaziyatiga mos ravishda so‘zni to‘g‘ri tanlash va qo‘llashga doir tuzilmasi konnotatsiyaning ingrent va adgerent turlarini aniqlash asosida ochib berilgan;

ona tili darslarida verbal ta’lim vositalaridan foydalanishning kognitiv jarayonlari so‘zni semantik jihatdan assotsiyativ farqlash; uni tovush jihatdan aniqlash; subyektiv ehtimollik metodikasi jihatdan yondashuv tizimiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

o‘quvchilarning leksik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik komponentlari so‘z va uning matnda ishlatilishi, ma’no konteksti, axborot berish (informatsiya), ekpressiya (estetik ta’sir va baho) kabi didaktik vazifalariga implementatsiyalash asosida aniqlangan;

ona tili fanini o‘qitishda o‘quvchilar leksik kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asosi “nazariyadan amaliyotga” tamoyili vositasida tilning fonetik, leksik-semantik, grammatik sathi va birliklariga optimal e’tibor qaratish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

leksikologiyani o‘qitish jarayonida leksik birliklarni abstrakt anglash va amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tuzilmasi va komponentlari aniqlashtirilgan;

o‘quvchilarning leksik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi ona tili faniga oid bilimlarini mustahkamlash maqsadida “O‘quvchilarning leksik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi” nomli dasturiy ta’minot yaratilgan (№DGU 39830, Toshkent, 2024 (11.06.2024-y)).

leksik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy usullardan tizimli foydalanish mexanizmi zarurati asoslangan;

o‘quvchilarga mustaqil tarzda leksik kompetensiyalarini rivojlantirib borishlari va verbal ta’sir vositalaridan keng miqyosda foydalanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga metodik yordam berishga mo‘ljallangan “Leksik kompetensiyalarni rivojlantirish va notiqlik mahoratini shakllantirish” nomli onlayn kurs dasturi ishlab

chiqilgan va bepul onlayn mashg'ulotlar yo'lga qo'yilgan – https://t.me/leksik_kompetensiya_notiqlik .

o'quvchilarda leksik kompetentlikni rivojlantirishning algoritmik xaritasi ishlab chiqilgan;

o'quvchilarda leksik kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini obyektiv aniqlash va avtomatik baholashga imkon beruvchi didaktik vositalar, metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo'llanilgan yondashuv, usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ona tili darslarida o'quvchilarning leksik kompetentligini rivojlantirishga oid fikr-mulohazalar ko'lamining kengaytirilganligi, leksikologiyani o'qitish metodikasining yangi xulosalar bilan boyitilganligi, o'quvchilarda leksik kompetentlikning shakllanganlik va rivojlanganlik darajasini aniqlashga ko'mak beruvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati zamonaviy ta'lim metodlari va texnologiyalari vositasida o'quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish hamda rivojlantirish, interfaol ta'lim muhitini yaratishning metodik tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ona tili ta'limida o'quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalariga doir ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

o'quvchilar leksik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mohiyati va mazmuni so'zning lug'aviy, grammatik xususiyatlarini farqlash, o'zaro qiyoslash, nutq vaziyatiga mos ravishda so'zni to'g'ri tanlash va qo'llashga doir tuzilmasi konnotatsiyaning ingrent va adgerent turlarini aniqlash asosida ochib berilgan ilmiy tavsiyalari "O'quvchilarning leksik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug'iga asosan berilgan 218-409-raqamli ruxsatnomasi). Natijada o'quvchilarining leksik kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha metodik ta'minot yaratish imkonini bergan;

ona tili darslarida verbal ta'lim vositalaridan foydalanishning kognitiv jarayonlari so'zni semantik jihatdan assotsiyativ farqlash; uni tovush jihatdan aniqlash, subyektiv ehtimollik metodikasi jihatdan yondashuv tizimiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan ilmiy yangiligidan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DM, "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Adabiy jarayon", "Bolalar va biz" nomli dasturlar ssenariysida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 1-apreldagi 04/36/433-son ma'lumotnomasi). Natijada eshittirishlarning ilmiy saviyasi

ortgan hamda o'quvchilarning leksik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari mexanizmi takomillashuviga erishilgan;

o'quvchilarning leksik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik komponentlari so'z va uning matnda ishlatilishi, ma'no konteksti, axborot berish (informatsiya), ekpressiya (estetik ta'sir va baho) kabi didaktik vazifalariga implementatsiyalash asosida aniqlangan maxsus metodik tizimidan 2020-2023 yillarda bajarilgan AM-F3-201908172 raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish mavzusi" nomli ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 24-iyundagi 04/1-1638-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarda so'zning lug'aviy, grammatik xususiyatlarini farqlash, o'zaro qiyoslash, nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri tanlash va qo'llashga doir leksik kompetensiyalari rivojlantirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola (3 tasi xorijiy va 7 tasi respublika jurnallarida), ilmiy uslubiy jurnallarda 3 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning "**O'quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat.

Bobning birinchi fasli "O'quvchilarning leksik kompetensiyalarini rivojlantirishda verbal ta'sir vositalaridan foydalanishga o'rgatish metodik muammo sifatida" deb nomlangan bo'limda soha bo'yicha muammoli nazariy masalalar haqida to'xtalinadi.

Leksik kompetensiya lingvistik kompetensiyaning bir qismi bo'lib, tilning leksik tizimi – uning tarkibi va tuzilishi haqidagi bilimlar yig'indisi, shuningdek, ushbu bilimlarni nutqda qo'llay olishga o'rgatish maqsadida mos ravishda uni qo'llash bilim, ko'nikma va malakalar tizimidir. Leksik kompetensiya lingvistik kompetensiyaning tarkibiy qismi bo'lib, gap mazmunini o'z ichiga oladi hamda u o'z navbatida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning qismlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, inson tafakkur orqali o'ylaydi, sezgi organlari vositasida tashqi olamni his qiladi, o'zini o'rab turgan moddiy borliqni til vositasida o'rganadi. Shuning uchun ham tafakkurning vazifasi bilan o'zaro bog'lanadigan tilning verbal tomonini tushunib olish muhimdir. Buning uchun verbal ma'no tushunchasining tilshunoslikda hamda ona tili o'qitish metodikasida qanday holda ekanini aniqlash, so'z, tushuncha, fikr va verballikning o'zaro munosabatini yoritish, so'zlardagi leksik tushunchani asoslash, nutqning obrazlilikini o'rganish kabi vazifalarni bajarishga to'g'ri keladi. Demak, verballikni his qila olgan shaxs, bizningcha, tilning qonun-qoidalarini mukammal o'rgangan, gapirish san'atini uddalaydigan, o'z nutqida intellektini ko'rsata oladigan shaxs bo'lib hisoblanadi.

Prezidentimizning bir qancha Qaror va Farmonlarida tilshunoslik hamda metodika fanlarining so'nggi yutuqlarini hisobga olib, ona tilini o'qitish tizimini rivojlantirish vazifalari belgilab berildi. Jumladan, ta'limning barcha bosqichlari uchun uzluksizlikni ta'minlagan holda umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi loyihasi yaratildi va shu asosda darsliklar, o'quv qo'llanmalari va didaktik materiallarning yangi avlodi yaratildi. Verbal vositalarning lisoniy ifodasi, ularning til tizimidagi o'rni, matniiy xususiyatlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari bir qancha tilshunos ham pedagog olimlar tomonidan o'rganilgan.

XXI asrga kelib, ta'limning hayot bilan aloqadorligini ifoda etuvchi tadqiqot ishlari yuzaga keldi. Shunga aloqador mavzular doirasida ularning mohiyatini o'quvchiga tushuntirishda ona tili ta'limini tizimli o'rganish, uzviylashtirish asosida bilim berish kabi muammolarga alohida e'tibor qaratildi. Til o'qitish metodikasidagi samarali usullardan foydalanish, imkon darajasida uning jozibadorligini ta'minlash, qiziqtirish ma'lum bir natijalarga olib keladi.

So'zdan foydalanish haqida fikr yuritar ekanmiz, bir tomondan, u ko'pchilikning obyektiv ehtiyojlari bilan belgilanishi, ikkinchidan, u butun ta'lim tizimining mazmunini ham, uning tashkil etilishini ham aniqlashini ta'kidlash lozim bo'ladi. So'zni idrok etish va so'zdan foydalanish ona tilining leksik vositalarida fikrni shakllantirish, ifoda etish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu e'tiborning, kommunikativ tomonining kuchayishi til o'qitish maqsadlari va uning mazmunini o'zgartirishda namoyon bo'ladi. Biz nafaqat tilni bilish haqida, balki uni haqiqiy muloqotda qo'llash qobiliyati haqida, ya'ni tilni amaliy bilish haqida bosh qotirishimiz kerak bo'ladi.

O.S.Axmanova ta'biricha "verbal" termini quyidagicha ma'no bildiradi:

1. Aynan: fe'lli, (fe'l turkumiga xos – M.S.).
2. Aynan: so'zli (so'zdan foydalangan holda – M.S.).³

Bu o'rinda uzatilayotgan verbal axborotda his-tuyg'ular, ruhiy holat va boshqa vositalar ham beriladi va natijada uzatilayotgan axborot to'la va mukammal bo'ladi: verbal ifoda, verbal ma'no, verbal tafakkur ifoda etiladi.

Ma'lumki, inson olamiga ta'sir etuvchi asosiy va yagona vosita so'zdir. Verbal ta'sir etuvchi so'z oddiy so'z emas, balki insondagi muayyan his-tuyg'uni, holat va harakatni, o'y va kechinmani o'zgalar qalbiga, shuuriga ta'sir etadigan darajada ifodalaydigan so'zdir.

3 Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1966. – 70 с.

Dissertatsiyada A.Sattarova, Sh.Nurullaeva, X.Muxiddinova, Y.Umarova, T.Kazieva kabi metodist-olimlar ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish imkoniyatlari, ona tili ta'limi jarayonida kompetensiyaviy ta'limni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini amalga oshirish va ulardan foydalanish metodikasiga oid masalalarni tadqiq qildilar.

Keyingi yillarda ona tili o'qitishda ifodalarning grammatik jihatdan to'g'riligi, aloqa-aralashuvning o'ziga xos jihatlari, uslubiy talablarga amal qilish, bo'yoqdor leksika, ekspressivlik, emotsionallikni ifodalovchi lisoniy vositalarni mahorat bilan ishlatish, lingvistik ko'nikmalardan o'z o'rnida foydalana olish kabi masalalarga katta e'tibor berilmoqda.

Ona tili ta'limi mustaqillikdan oldin va mustaqillikning ilk yillarida asosiy e'tiborni til qoidalarini yod olish, til hodisalarini tahlil qilish kabi nazariy bilimlarni egallashga qaratgan edi. So'z boyligini oshirish, matn ustida ishlash asosida og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, uslubiyat, antropotsentrik yondashuv masalalari ilmiy grammatizm soyasida qolib, ularga ikkinchi darajali vazifa sifatida qarash odat tusiga kirgandi. Ta'limni takomillashtirish, o'quvchilarda nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyani antropotsentrik yondashuv asosida shakllantirishda badiiy matn imkoniyatlaridan keng foydalanish masalalariga e'tibor qaratilmadi⁴.

Aytish joizki, har bir so'z o'zining tovush qiyofasiga va ma'nosiga ega, ya'ni shakl va mazmunga egalik xususiyati mavjud bo'ladi. So'zning ma'no qirralarini, til ta'limidagi ahamiyati haqida fikr bildirar ekanmiz, so'z ishlatishdagi tejamkorlik haqida alohida to'xtalish lozim.

Deding: "Xayr!"

Dedim: "To'xta?"

Deding: "Nuqta!"

Dedim: "Sabr?"

To'lan Nizomning ana shu to'rtligiga e'tibor bering. Bu ajoyib to'rtlikda bor-yo'g'i 5 xil so'z bor. Biroq sakkiz so'z asosiga qurilgan she'rda shoir holatning go'zal suratini chiza olgan. Bu yerda ikki yor: oshiq bilan ma'shuqa o'rtasidagi bir dostonga arziriklik voqea-hodisani ilg'ab olish mumkin; ya'ni ayriliqqa ketayotgan yor (Xayr!); iltijo (To'xta?), qat'iyat (Nuqta!), qanoatning rohati (Sabr?) kabilar ifoda etiladi.

O'quvchi-talabalarga sakkizta so'z asosiga qurilgan she'r asosida hikoyali matn tuzishlari topshiriq qilib beriladi va u tahlil etiladi. Bunday vazifalar esa o'quvchilarni so'z qudratini anglashga yo'naltiradi.

Birinchi bobning ikkinchi bo'limi "So'zning nutqiy-tafakkur faoliyatidagi o'rni va uning verballashuvi" deb nomlangan bo'lib, unda so'z va uning verballashuvi masalasi muhokama qilingan. So'z tilning markaziy birligi ekan, uni o'rganishga ham yetakchi unsur sifatida yondashiladi. Lekin ta'lim muassasalarida so'z tadqiqi biryozlama o'rganilishi natijasida uning imkoniyatlari to'la ochib berilmayotir. Vaholanki, o'quvchi so'z va uning ma'nolari ustida ishlay olishi, so'zni nutqda qanday qo'llash mumkinligini teran anglay olishi lozim. Lekin ular so'zdan to'g'ri foydalanishni bilishmaydi, so'z boyligi yetarli bo'lmagani bois so'zlash qobiliyatini,

⁴ Sobirova M. Ta'limga antroposentrik yondashuv. Monografiya. – Namangan: Usmon Nosir media, 2022.– 52 b.

verbal ta'sir vositalaridan foydalana olish yo'llarini tushuna olmaydi. O'quvchi nazariy bilimlarini hayotda qanday qo'llash yo'l va usullarini, ularni umumlashtirish, tahlil va sintez qilish, asoslash kabi ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishni to'la tushunib yetmayapti. Zero, tilshunos F. de Sossyur aytganidek, til sistemasida so'z konkret birlik sifatida baholanadi, bizning ongimizda yaqqol ajralib turadigan birlik bo'lmish so'z til mexanizmining markaziy elementi hisoblanadi, "So'z temasi butun bir tomni to'lg'izishga yetadi"⁵. So'z haqida aytilgan ushbu fikr hali ham o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Shuning uchun ham biz so'zning ona tili o'qitishdagi o'rniga, uning verballashuvi ahamiyatli ekanligini ko'rsatishni maqsad qilganmiz. Buning uchun uning ta'sir kuchini oshirish yo'llarini izlashimiz, o'quvchining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishimiz ahamiyatli hisoblanadi. Chunki so'zda tilning fonetik, morfologik, sintaktik, leksik va boshqa xususiyatlari mujassamlashgan bo'ladi. Lingvistik kompetentlikni shakllantirish kommunikativ kompetentlik bilan birga yetakchi maqsadlardan biri bo'lib, maktab o'quvchilarining til (lingvistik) va nutq rivojlanishining birligini ta'minlaydi, u til kompetensiyasi rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi, chunki uning rivojlanish darajasi o'quvchilar nutqining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi⁶. Zero, lingvistik kompetensiya so'zning va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Ma'lumki, ona tili o'qitish metodikasi nutq o'stirish hamda tafakkur rivoji bilan chambarchas bog'liqdir. Nutq kishining tashqi dunyo bilan o'zaro aloqasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Nutq so'z orqali voqe bo'ladi. Shu sababdan ham nutqqa, ya'ni so'zlashga qo'yilayotgan talab azaldan ta'lim-tarbiya tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. O'quvchining nutqi va tafakkurini o'stirish barcha fanlarga daxldor bo'lsa ham, uning mas'uliyati, asosan, ona tili fani zimmasidadir.

So'zning verballashuvida intonatsiyaning alohida o'rni bor bo'lib, u gapning ma'no va mazmunini konkretlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Umumiy ma'lum sharoitlarda ularning kommunikativ turlarini ta'minlash, qabul qiluvchiga yetkazish, fikrlarni tartibga solish uchun sharoit yaratadi. Nutq davomida hissiy holat ifodasi qarsak chalish kabi noverbal vositalar orqali ham o'z ifodasini topadi. *Hushtak chalish, ingrash, yig'lash, kulish* va h.k.

Verbal ta'sir vositalari ko'pincha hissiy holatda, diksiyada, emotsionallik va ifodalilik undov orqali ifoda etilganda namoyon bo'ladi.

Ular: 4 jihatdan ifoda etiladi:

- 1) semantik, tarkibiy bo'linishga xizmat qiluvchi;
- 2) kundalik hayotda qo'llaniladi (salom, tabrik, yaxshi istak va boshqalar);
- 3) hissiyotlar orqali ifoda etiladi (yig'lamoq, kulmoq);
- 4) so'roq va undov xarakteridagi iboralar orqali (borolmayman, borolmayman!).

Tuyg'ularning xususiyatlari, ularning guruh tabiati, ta'siri, polisemiya, emotsional vositalarning ko'p funksiyaliligi haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Ona tilida so'zlashuvchilarning ta'sirliligi hissiy leksik birliklar, tilni egallash jarayonida shakllanadi. Shuningdek, verballik ko'p ma'noli so'zlardan, shu jumladan, his-tuyg'ulardan foydalanish asosida sodir bo'ladi:

5 Ф. де Соссюр. Курс общей лингвистики. – Москва, 1933. – 113 с.

6 Rasulov Q.A. O'zbek muloqot xulqining funktsional xoslanishi. Fil. fan. nomz. disser. – Toshkent, 2008.

- 1) paralingvistik vositalar (mimika, imo-ishoralar, tana harakatlari);
- 2) supersegment yordamida (intonatsiya, ohang, ovozdagi keskinlik);
- 3) noverbal kontekst (nutq vaziyati bilan bog'lanish);
- 4) og'zaki kontekst (qo'shimcha so'zlardan foydalanish orqali).

So'z kishiga verbal ta'sir qiluvchi hissiy va ruhiy omildir. U nutq jarayonida ham, undan keyin ham inson xotirasida saqlanib qoladi. So'zlash bilan qobiliyat, so'zlash bilan idrok, so'zlash bilan tushunish kabi ko'nikmalar kishi xotirasida mustahkamlanib qoladi. Bu esa kishining uning imkoniyatlaridan foydalana olish ko'nikmasi va darajasini ko'rsatadi.

Birinchi bobning uchinchi bo'limi "O'quvchining atrof-olam haqidagi bilim va ko'nikmalarining so'zda aks etishi" deb nomlangan bo'lib, unda olamni inson tomonidan idrok etilishi va lisoniy manzaraning voqe bo'lishi xususida to'xtalangan.

Haqiqatan ham ushbu tushunchalar asosida shakllanib, uzluksiz rivojlanib borayotgan milliy tillar olamni turli bo'yoqlarda, betakror tarzda so'zlar orqali tasvirlashi tabiiy holdir. Holbuki, tilimizda ishlatiladigan so'zlar o'z ma'nolari tizimidagi birikishi orqali olamning o'ziga xos modelini milliy va madaniy rang-baranglikda boyitadi.

O'qituvchilarimiz ommasi kognitiv-pragmatik usulda ishlashni – o'quvchiga bilim berishni emas, uni yo'naltirib, izlantirib, o'ylantirib kuzatayotgan hodisalari asosida o'z hukmini chiqarishini va uni ifodalashi lozimligini o'zlari uchun asosiy me'yor sifatida belgilab olishlari shart.


Kognitiv ta'limda o'quv materiali darslikdan tashqarida bo'ladi. Darslik faqat namuna va yo'llanma – o'zlashtirish algoritmini beradi, xolos.

Kognitivlik psixologik-pedagogik hodisa bo'lib, u o'quv-me'yoriy hujjatlarda belgilangan mazmunni o'zlashtirishda, nutqiy muloqot orqali namoyon bo'ladi va u verballashuvda reallashadi. Kognitiv rivojlanishda uch xil faoliyat namoyon bo'ladi: fikrlash, til va o'rganish.

Kognitiv faoliyat insonning biror narsa yoki voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir. O'z-o'zidan ma'lumki, tafakkur til bilan chambarchas bog'liqdir. Professor A.Mamatov "Kognitiv fan bilish bilan shug'ullansa, kognitiv tilshunoslik kognitsiyaning, ya'ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq etadi. Tilga bo'lgan kognitiv yondashuv - bu til shaklining inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o'z tuzilishiga ko'ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi"⁷.

Kognitivlikni o'quvchilarda paydo qilish uchun so'zni verballashtirish talab etiladi. Unda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi (**1-rasmga qarang**).

⁷ Mamatov A. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada?//Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Andijon, 2012. – 212-219 b.




1-rasm. So'zni verballashtirish jarayonida quyidagi usullardan foydalaniladi

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O'quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda verbal ta'sir vositalaridan foydalanish texnologiyalari”** nomlanib, unda **“O'quvchilarda verbal ta'sir vositalaridan foydalangan holda leksik kompetensiyalarini shakllantirishni tizimli takomillashtirish”** (2.1-§) masalasi tahlil qilinadi.

Ona tili o'qitishda shaxsning verbal intellektini shakllantirish asosida leksik kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ana shundagina o'quvchining so'z boyligi oshadi, uning so'zdan foydalana olish imkoniyati kengayadi.

Shaxsning verbal intellekti – nafaqat oddiy so'zlardan foydalanish imkoniyati, balki so'zlarni idrok etish va boyitish, olingan ma'lumotlarni mulohaza qilish, o'rganish va nutq faoliyati ko'rinishida tizimlashtirish qobiliyatidir.

Kognitiv faoliyatni amalga oshirish orqali shaxsning verbal intellektini tizimlashtirish mumkin bo'ladi. Uni biz tadqiqotimiz mavzusidan kelib chiqib, quyidagicha ifoda etdik **(2-rasmga qarang)**.




2-rasm. Kognitiv faoliyatni amalga oshirish orqali shaxsning verbal intellektini tizimlashtirish mazmuni.

Dissertatsiyada o‘quvchilarga fe‘l so‘z turkumini o‘rgatishda subyektning emotsionalligi alohida o‘rin tutishi haqida axborot berilgan bo‘lib, kishi organlarining ishoraviy harakatlari hissiy, ruhiy, ta’sirchanlik va boshqa ma’nomalarni ifodalab kelishi misollar asosida tushuntirilgan. Shuningdek, munosabat bildiruvchi fe‘llar ham tahlilga tortilgan.

O‘quvchining verbal ta’sir vositalaridan o‘rinli foydalanishi uchun nutq faoliyatining buyruq, iltimos, savol, javob, tabrik, suhbat, bayon va hokazo kabi ko‘rinishlaridagi bir-biridan yaqqol farqlanishini, ularning maxsus nutqiy amallar sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsata olishimiz zarur. Nutq amallarining bunday xilma-xilligi nutqning ko‘p aspektli ekanligini ko‘rsatib beradi. Ilmiy manbalarda nutqning quyidagi aspektlari, faktorlari ajratib ko‘rsatiladi: 1) gapiruvchi (nutq faoliyatini amalga oshiruvchi shaxs); 2) tinglovchi (nutq amalini eshituvchi shaxs); 3) nutqning kechishi (nutqning protsessual tomoni); 4) nutqning tovush-talaffuz tomoni; 5) nutqning mazmun tomonini ifoda etuvchi.

“Leksik kompetentlikni rivojlantirishda verbal ta’sir vositalaridan foydalanishning innovatsion metod va usullari” bo‘limi (2.2-§) sof metodik yo‘nalishda bo‘lib, o‘zbek tilini rivojlantirish Konsepsiyasi doirasida belgilangan maqsad va vazifalarni keng amaliyotga joriy etish natijasida o‘quvchi-yoshlarning intellektual rivojlanishiga samarali ta’sir etish, o‘zbek tili fanining o‘qitish bosqichlari, o‘quv fani bo‘yicha ta’lim mazmuni va malaka talablari me’yorlarini aniqlashtirish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida zamonaviy va innovatsion texnologiyalar yordamida ona tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish; ta’lim muassasalarida o‘zbek (ona) tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini takomillashtirish kabi masalalarni yoritishni o‘z ichiga olgan. Buning isbotini quyidagilarda ko‘rish mumkin (**3-rasmga qarang**).



3-rasm. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning leksik kompetensiyalarini verbal ta'sir vositalari yordamida takomillashtirish modeli

Dissertatsiyada tilning verbal ifodasi haqida fikr yuritilar ekan, o'quvchilarning leksik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun turli qisqa va lo'nda fikrlardan foydalanish tavsiya etiladi va mashq namunasi keltiriladi.

Ma'lumki, o'quvchining so'z boyligi uning lug'at fondiga asoslanadi. Uning nutqidagi emotsionallik, ohangdorlik, romantizmga boyligi esa so'zning verballigi uchun xizmat qiladi. Bunda, albatta, so'zlar ma'lum uslubiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Nutqimizda ishlatiladigan emotsional so'zlargina emas, balki sinonim so'zlar ham verballikni ta'minlanishida ahamiyatli sanaladi. O'quvchi so'z boyligini oshirishda "Adabiyot" darsligidagi matnlardan yoki shoir va yozuvchilarning badiiy asarlaridan so'zlarni olib, ularning ma'nosini aniqlab, faol nutqiy faoliyatga olib kirish kerak bo'ladi.

Jumladan: *suzgun, dog'uli, munavvar, ro'baro', ishqparvar, otashin, arg'umoq, yovyurak, jondosh, intiqom, bo'sa, mahzun, bashar, parishon, noma, munis, ulug'vor, xayolot, bukun, nasim, shafaq, tamug', gulgun, zavol, g'oyat, mohro'y, yov, boqiy, ustod, zulmat, lolagun, eldosh, o'lka, sarzamin, yalov, on, lolagun, bolqar, nechun, ayyom, daryodil, chaman, oshyon, shams, yondosh, sarbasar, niliy, lojuvard, surur, yoddosh, do'stparvar, ichra, suzuk, samo, sarbasar, samo, nido, ajib, bog'iston, mahbub, insoniy, so'nik, erur, asriy, inmoq, kabutar, bog'iston, charog'bon, lol, iqbol, jahoniy, ummon kabi.*

Keyin esa "ushbu so'zlar ishtirokida sinfdoshingiz bilan suhbat o'tkazing, matn yarating" topshirig'i beriladi. Ushbu so'zlarni nutqda qo'llash natijasida ular muloqotning faol qatlamiga o'tadi va ushbu birliklar ommalashadi.

Ma'lumki, har bir o'quvchi so'zning ma'no jilvalarini kashf etishda o'ziga xos mustaqil yo'lga ega bo'lishlari zarur. Chunki doimo bir xil so'z ishlata bergan o'quvchida so'z zaxirasi oz bo'ladi. Buning uchun interfaol metod va texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, o'quvchining so'z boyligini oshirishda qulay usul hisoblangan CLIL metodidan foydalanish kutilgan natijani beradi.

So'zdan foydalanishning verbal vositalarini o'rganishda CLIL metodi asosida darslarni tashkil qilish samara beradi. CLIL – bu ingliz tilidan olingan bo'lib "Content and Language Integrated Learning", ya'ni so'z mazmunini va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish ma'nosini beradi.

Ma'lumki, mazkur tadqiqot ishini yozishdan maqsad o'quvchilar lingvistik bilimlarini oshirish hamda verbal ta'sir vositalaridan foydalanish yo'l-yo'riqlari haqida ma'lumot berishdan iborat. Shunday ekan, o'quvchining kompetentligini oshirish uchun leksik bilimlarini orttirish, so'z va uning ma'nolarini anglash, matnda so'zlardan o'rinli foydalana olish, sinonimlar, antonimlar, omonimlarni bilishi, og'zaki va yozma nutqda ulardan foydalana olishni o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chunki o'quvchi lingvistik kompetensiya orqali 1) o'zbek tili leksikasining boyish manbalarini biladi; 2) yangi paydo bo'lgan so'zlarni biladi, tarixiy va arxaik so'zlarni bir-biridan farqlaydi; 3) terminlarni, kasbiy terminlarni, internet va iqtisodga oid terminlarni, fanga oid terminlarni izohlaydi; 4) lug'at va uning turlarini farqlaydi.

Demak, o'quvchilarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish uchun so'z va uning ma'nolarini turli yo'llar bilan o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Verbal usulda berilgan ma'lumotlar idrok qilish uchun eng qulay bo'lib, u o'quvchilarning materialni qabul qila olishlarida qulaylik tug'diradi. Verbal ta'sir vositalari orqali ona tili o'qitish quyidagi imkoniyatlarni beradi: 1) ona tili ta'limi jarayoni, kognitiv yondashuvlar samarali tarzda tashkil etiladi; 2) ona tili o'rganishga motivatsiya uyg'otadi va tilning qonun-qoidalarini tezroq o'rganishga imkon beradi; darsda jonli til muhiti yaratiladi; 3) tilni o'rgatishda shakl va mazmun birligi amalga oshadi; 4) bolaning ehtiyojlari, istaklari va qiziqishlari qondiriladi; 5) bilimlarni nazorat qilish va tuzatish o'quvchilarning ehtiyojlari, istaklari bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi; 6) o'quvchi ona tilining turli vositalaridan o'rinli, samarali foydalanadi; 7) ona tilining jozibadorligini his qiladi.

Nutqdagi verballik tasavvur qilish qiyin bo'lgan voqea-hodisalarni kishining tasavvuriga singdiruvchi, shu orqali unda zavq-shavq uyg'otuvchi, estetik ta'sir etuvchi nutqdir.

Verballikni hosil qiluvchi, nutqni jilolantiruvchi vositalardan biri so'zlarning ko'chma ma'nolarda qo'llanishidir. Ko'chma ma'no hosil qilgan so'z matnda biror uslubiy funksiyani bajaradi, shu xususiyati bilan verballashadi.

